

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TELEVEDINYANING TA'SIRI.

**Odiljonova Xurshida Xasanboy qizi**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Tarix fakulteti Ijtimoiy ish 3-bosqich talabasi*

*Biz uchun bolalarimizning ma'naviyati, bilimi, sog'ligi eng muhim masala. Shuning uchun davlat tomonidan maktabgacha ta'limga katta e'tibor berilyapti va bu hali boshlanishi. Sizlarning vazifangiz bolalarning ko'zidagi nurni ilg'ab olish, ularga yaxshi tarbiya berish.*

**Sh. M. Mirziyoyev**

**Annotatsiya:** *Maqolada maktabgacha yoshdagi, endi rivojlanayotgan bolalar psixologiyasiga ularning aqliy rivojlanishiga ommaviy axborot vositalari, xususan televidinyaning ta'siri hozirgi kunda namoyish etilayotgan multfilm, kinofilmlarninga yoshlar ongiga ta'siri haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Bolalar, psixologiya, taraqqiyot, multfilm, cheklov, tajjavuzkorlik, sayoz, dasturlar.*

Maktabgacha bo'lgan yosh bola idroki rivojlanishi, bolaning dunyo haqidagi dastlabki qarashlari vujudga keluvchi eng murakkab davrdir. Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarni yorqin, rang-barang narsalar ayniqsa o'ziga jalb qilganligi sababli, bolaning ob'ektni idrok etishida rangning hal qiluvchi roli nazariyasi paydo bo'ldi va psixologiyada mustahkam o'rin tutadi(G. Volkelt, D. Katz, A. Dekedr).<sup>9</sup>

Aynan mana shu davrda bola psixikasiga, ijtimoiylashuviga, bolalar bilan muomalaga kirisha olishiga erishgan ota-onalar bolaning katta hayotga kirishiga zamin yaratgan bo'ladilar. Kichik yoshdagi bolalarga ta'sir etuvchi manbaalarning ichida bugungi kunda televedinya eng yuqori o'rindadir. Sababi ko'p holatlarda o'z ishlarini bitirib olish bahonasida onalar bolalarini o'zlari bilmagan holda televizorga bog'lab qo'yadilar. Televiziyon ko'rsatuvlardagi namoyish bolaning hayotni yuzaki idrok etishga odatlangan, passiv va intellektual dangasa bo'lishiga zamin yaratadi. Axloqiy darajada past bo'lgan dasturlar va filmlar bolalarni tajovuzkor bo'lishga, nomaqbul xatti-harakatlarga o'rgatadi va oxir-oqibat, axloqiy me'yorlarning pasayishiga yordam beradi. Ta'kidlanishicha, teledasturlarni faol tomosha qiladigan maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab o'quvchilari itoatsizlikka, xulq-atvorning tajovuzkor shakllarining namoyon bo'lishiga, jahldorlik, qo'pollik, nizolarga moyil bo'ladi. Ular o'z ishini jang qilish orqali isbotlashni afzal ko'radilar. Bunday bolalar, odatda, qiyinchilik bilan uxlashadi, uyqulari ham tinch bo'lmaydi, uyqusida alahsiraydilar, yig'laydilar. Ichki dunyoning qashshoqlashuvi dunyoga faqat bir

<sup>9</sup> [www.iaa-rf.uz](http://www.iaa-rf.uz).

tomonlarni nazar solish bolalarning tengdoshlari bilan konstruktiv muloqot qilish qobiliyatini buzadi, ularning munosabatlari yuzaki va ibtidoiy bo'lib qoladi.<sup>10</sup> Sababi ko'plab yevropadan kirib kelgan multfilmlar sayoz, ma'lum g'oyani ochib berishga mo'ljallanmagan aksincha yevropacha madaniyatni yoyishga xizmat qilishga qaratilgan. Ulardagi kiyinish madaniyati muomala madaniyati, ota-onaga munosabat mentalitetimizga mutlaqo yot. Bundan tashqari ayni vaqtdagi multfilmlarda bolalar yoshiga tog'ri kelmaydigan kattalar uchun mo'ljallangan ishq-muhabbat, sevgi singari tushunchalarga urg'u berish avjiga chiqqan, bunday multfilmlar ko'rib ulg'aygan bolalar tez voyaga yetib qoladi. Bu bilan boladan hamma narsani chekladh lozim degan nazaryani ilgari surilsh niyatida emasman, ularga cheklovlar qo'yish lozim. Bolaning o'zini o'zi saqlash instinkti va uning atrofidagi odamlarga g'amxo'rlik qilish qiymati alohida televizion syujetlarni tomosha qilishda jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Odatda multfilm qahramonlari multfilm davomida bir-birini urishadi, jang qilishadi, o'ldirishadi keyin hech narsa bo'lmagandek o'rnidan sakrab turib ketaveradilar. Multfilmda odam o'ldirish ham odatiy holatdek ko'rsatiladi, bolalarda bunday vaqtda nima yolg'on, nima haqiqat ekanligi haqidagi tushunchalari cheklangan va sayoz bo'ladi. Shuning uchun ham bola o'lim tushunchasi, urishish, jang kabi tushunchalarni odatiy holdek haqiqatdek qabul qiladi. Multfilmda kimdir o'ldirilgan bo'lsa, unda bolalar o'zidan kichik aka-uka va opa-singillarni, uy hayvonlarini kaltaklashi, tengdoshlariga, kattalarga va ba'zilariga nisbatan tajovuzkorlik ko'rsatishi ajablanarli emas.

Psixologlar 4 yoshgacha bo'lgan bolaga miya tuzilmalari kamolotining asosiy davrida, 6 yoshdan keyin haftasiga bir soatdan ko'p bo'lmagan holda televizor dasturlarini umuman ko'rmaslikni tavsiya qiladi; 10 yildan keyin - 2-3 soat. 16 yoshdan keyin cheklovlar olib tashlanadi, chunki o'smir o'sib ulg'ayishi va televizor ko'rish istagi va bu ko'rish keltirishi mumkin bo'lgan zarar o'rtasidagi tanlovni tanlash uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish layoqatiga erishadi<sup>11</sup>.

Biroq televideniyaning faqat yomon tomonlarini ko'rish tog'ri ish emas. Shunday dasturlar, multfilmlar borki bola tarbiyasiga bevosita yo'naltirilgan, uni tomosha qilish barobarida bolada dastlabki tushunchalar paydo bo'lishiga yordam beradi. Bolalarga katta miqdordagi keraksiz materiallar orasidan keraklilarini topishga yordam berish juda muhimdir.

Buning uchun ota-ona bolani yoshligidan boshlab vaqtini rejalashtirishga o'rgatishi lozim, shuning barobarida bolaga televizor ko'rish uchun ham vaqt ajratilib kundalik ko'riladigan dasturlarni birgalikda, hamjihatlikda tanlagan ma'qul barchaga ma'lumki bolaga qattiq gapirish, baqirish orqali ta'sir o'tkazish qiyin shuning uchun unga yoqadigan iliq so'zlar bilan ta'sir o'tkazish kerak. Shunday qilib bolaning kunlik teledasturlari rejasini tuzdik, shundan so'ng boladan :

1.Ko'rgan dasturining nomi nima ekanligini.

<sup>10</sup> [www.minikar.ru](http://www.minikar.ru).

<sup>11</sup> [www.ija-rf.uz](http://www.ija-rf.uz).

2.Ushbu dasturdan nimalar o'rganganini.

3.Uni ko'rish davomida nimalar unga yoqmaganini.

4.Dasturning unga eng qiziqarli tuyilgan joyi qayeri ekanligini.

5.Ushbu dastur, (multifilm) davomidagi yodida qolgan 5 ta obraz yoki so'zni aytib berishini so'rash lozim.

Bu orqali bolani fikrlashga, nutqini rivojlantirishga, taassavurini boyitishga erishish mumkin.

Ya.L.Kolomenskiy bog'cha yoshidagi bolalar guruhini odamlar ijtimoiy birligining ilk pog'onasi<sup>12</sup> deya ta'kidlagan. Bundan anglab yetishimiz mumkinki bolada ushbu vaqtga kelib muomala layoqati shakllanadi. Bolada motivlar ieraxiyasidagi motivlarning bir-biriga o'zaro tobe bo'lib bog'langanligi tufayli bola muhim, lekin ancha zerikarli vazifani bajarish uchun ayni damda unga qiziqarli bo'lib ko'ringan maxsulotdan vos kechishi mumkin.<sup>13</sup>Bolaga shuni singdirish, tanlov imkoniyatini, ustuvorlikni belgilashni o'rgatish orqali noto'g'ri televizion dasturlardan voz kechishga, yoki bunday dasturlarni yaxshisiga almashtirishga erishish mumkin.Bolani tarbiyalashda ota-ona har doim bola uchun ideal shaxs hisoblanadi, shuning uchun ham ota-ona bolaga o'zi na'muna bo'lishi lozim.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman"<sup>14</sup> deganlarida ham bolalarga ta'lim berish har birimizning yuksak vazifamiz ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

Biz bolalarga hech nimani tushunmaydigan shaxs sifatida qaraymiz, ammo har bir bolaning ma'lum bir narsa-hodisalar haqida o'z taassavuri mavjud. Agar bolalarda ushbu taassavurlar rivojlantirilmasa aqliy qobiliyatlarida oqsash yuzaga keladi. Bog'cha yoshidayoq ba'zi bolalar xulk-atvorida yaratuvchanlik, ayrim bolalarda esa buzg'unchilikka, iste'molchilikka bo'lgan mayillar erkin namoyish buladi. Tarbiyachi va ota-onalar bunday mayillarni tez payqab olishi lozim. Chunki bu salbiy xususiyatlarning o'z vaqtida korrektsiya qilish, ijtimoiy jihatdan qadrlanadigan ehtiyoj va motivlarni shakllantirish, xar bir bola uchun o'z-o'zini namoyon etishga sharoit yaratish imkoniyatini beradi.

Bola faoliyati, atrof olamni va o'zini bilishi, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan munosabat jarayonida xilma-xil emotsiyalar xamda xissiyotlarni o'zidan o'tqazadi. Shuning uchun har bir ota-ona bolasining zangori ekran orqali nimani tomosha qilayotganiga ahamiyat berishi lozim.

<sup>12</sup> Bolalar psixologiyasiga va psixodinamikasi.  
Z. Nishonova. K.Alimova.

<sup>13</sup> Bolalar psixologiyasiga va psixodinamikasi.  
Z. Nishonova. K.Alimova.

<sup>14</sup> [www.kknews.uz](http://www.kknews.uz). Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning nutqlaridan.